

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ALIMOVA SOFIYA RO‘ZUMBAYEVNA

**BIZNES JARAYONLARDA INNOVATSION LOYIHALARNI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri– 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Alimova Sofiya Ro‘zumbayevna

Biznes jarayonlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini
takomillashtirish.....3

Алимова София Розумбаевна

Совершенствование механизмов финансирования инновационных проектов в
бизнес-процессах29

Alimova Sofiya Rozumbaevna

Improving Financing Mechanisms for Innovation Projects in Business
Processes.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ALIMOVA SOFIYA RO‘ZUMBAYEVNA

**BIZNES JARAYONLARDA INNOVATION LOYIHALARNI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri– 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3735 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziynet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ruziyeva Dilobar Isomjonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Umurzakov Jamoliddin Sherbekovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: Alfraganus Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 22/29.12.2023.1175.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "06" "09" soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Toshkent, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks: (99895) 383-55-55. e-mail: info@tiu.uz.

(82) Dissertatsiya bilan Toshkent xalqaro universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (82 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Toshkent, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks: (99895) 383-55-55. e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "11" "08" kuni tarqatildi.
(2025 yil "12" "07" da 42 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) va butun dunyo bo‘ylab raqamli texnologiyalar davrida, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish qobiliyatiga ega bo‘lish juda muhim bo‘lib qolmoqda. Buni samarali amalga oshirish yakkaxon kompaniyalar uchun ham, milliy tizimlar uchun ham raqobat ustunligining muhim omiliga aylanmoqda. Eng avvalo, dunyo venchur kapital bozori barqaror o‘lishni namoyish etdi. “2024-yilning birinchi choragida butun dunyo bo‘ylab yangi, innovatsion startaplarga kiritilgan investitsiyalar 20 milliard AQSh dollaridan oshdi va bu innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun samarali vositalarga bo‘lgan ishtiyoq ortib borayotganini anglatadi”, dedi KPMG. Shunday qilib, yangi texnologik imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga javob beradigan yanada moslashuvchan va samarali moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish zarur. Dinamik muhitda boshqaruv faoliyatini optimallashtirish va barqaror biznes modellari yaratishga qaratilgan yangi yechimlarni qabul qilish zaruriyati yanada kuchayib bormoqda va moliyalashtirish mexanizmlarini yangilash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jahonda yirik ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyati fintex-yechimlar, blokcheyn texnologiyalari va markazlashmagan moliya (DeFi)ning rivojlanishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun nazariy anglash va amaliy moslashtirishni talab qiladigan yangi imkoniyatlarni tadqiq qilishga qaratilgandir. Shuningdek, xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan blokcheyn va tokenlashtirish kabi yangi texnologiyalar, subsidiyalar va maxsus innovatsion fondlarni yaratish, soliq imtiyozlari joriy qilish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, startup akseleratorlari, biznes-inkubatorlar va venchur fondlarni rivojlantirish, startaplar va investorlar o‘rtasida axborot shaffofligini oshirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish masalalarini qamrab olgan tadqiqotlar muhim o‘rin tutmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish sharoitida xalqaro standartlar va amaliyotlarga mos keladigan innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning yangi shakllari va vositalarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Mamlakatda xo‘jalik faoliyatining barcha sohalariga innovatsion texnologiyalar va yechimlarni joriy etishni talab qiladigan keng ko‘lamli iqtisodiyotni modernizasiya va diversifikatsiya qilish “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasi” dasturi amalga oshirilmoqda¹. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga ushbu sturni muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda biznes-jarayonlarni raqamlashtirish sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti quyidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi: innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish;

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

iqtisodiyotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy etish; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli transformatsiyasi; raqamli infratuzilmani rivojlantirish; innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish; yangi moliyaviy vositalarni rivojlantirish; innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29-noyabrdagi "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5583-son farmoni, innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish; innovatsiyalarni tijoratlashtirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; innovatsion infratuzilmani rivojlantirish - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-son qarorida nazarda tutilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish uchun kompleks bazani shakllantiradi va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo'yicha davlat siyosati matnida olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning sezilarli hissasi bilan tavsiflanadi. Bunda ushbu muammoning turli jihatlari turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar olimlarining ishlarida o'z aksini topgan.

Innovatsion rivojlanish va innovatsiyalarni moliyalashtirishning nazariy asoslari xorijiy olimlarning fundamental asarlarida yaratilgan: Y. Shumpeter innovatsion rivojlanish nazariyasi va innovatsion jarayonda tadbirkorning roli nazariyasini ishlab chiqqan; P. Druker innovatsion menejment va innovatsiyalarni strategik boshqarish masalalarini tadqiq qilgan; R. Solou iqtisodiy o'sishda texnologik innovatsiyalarning rolini asoslab bergan; K. Frimen asarida milliy innovatsion tizimlar; G.Chessbro ochiq innovatsiyalar konsepsiyasini, taqdim etgan va Uilyam Sahlman, Robert Kumar, Erik fon Xippel, Bengt-Oke Lundvall, Richard

Nelson, Neytan Rozenberglar, Harold Kerzner, Lerner va Nanda ham o'z hissalarini qo'shishgan.²

Innovatsion loyihalarni moliyalash bo'yicha zamonaviy aspektlar quyidagi tadqiqotlarda o'rganilgan: R. Merton va Z. Bodi tomonidan moliyaviy innovatsiyalarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Ular moliyaviy innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini chuqur tahlil qilganlar. P. Gompers va J. Lernerlar venchur moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq etilgan. Ular venchur kapitalining investitsiyalar davrini, startaplarni moliyalashtirish xususiyatlarini keng yoritganlar. E. Berglofning korporativ innovatsiyalarni moliyalashtirish masalalarini o'rgangan. U korporatsiyalarning innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash strategiyalarini tahlil qilgan. D. Tisning dinamik qobiliyatlar konsepsiyasini rivojlantirgan. U kompaniyalarning o'zgaruvchan bozor sharoitida moslashuv va innovatsion bo'lish qobiliyatini tadqiq etgan. Shu bilan bir qatorda, Robert Kuper, Stiven Uilrayt va va Kim Klark, Erik Ris, Devid Kelli, Kleyton Kristensen, Xirotaka Takeuchi va Ikudjiro Nonaka, Aleksandr Ostervalder va Iv Pinye, Kris Trimbl, Doroti Leonard, Henri Minsberg, Qu, Yiming, Huang, Kexin, Zhang, Liansheng kabi olimlar bu soxada o'z hissalarini qo'shganlar. Ushbu tadqiqotlar innovatsion moliyalashtirish, venchur kapital va strategik boshqaruv sohasida muhim nazariy va amaliy yangiliklar bergan.³

O'zbekistanning innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar quyidagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan: S.S. G'ulomov raqamli transformatsiya masalalarini tadqiq etgan. U O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilgan. N.M. Mahmudov modernizatsiya

² Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row, 1985. Solow R.M. Technical Change and the Aggregate Production Function // Review of Economics and Statistics, 1957, Vol. 39, No. 3. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. Pinter Publishers, 1987. Chesbrough H.W. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press, 2003. William Sahlman. The Structure and Governance of Venture Capital Organizations, 1990. Robert Cooper-Winning at New Products: Creating Value Through Innovation, 2011. Eric von Hippel -The Sources of Innovation, 1988. Bengt-Åke Lundvall- National Systems of Innovation, 1992. Richard Nelson- National Innovation Systems, 1993. Nathan Rosenberg- Exploring the Black Box: Technology, Economics and History, 1994.

³ Merton R.C., Bodie Z. Financial Innovation and Economic Performance // Journal of Applied Corporate Finance, 1992, Vol. 4, No. 4. Gompers P., Lerner J. The Venture Capital Cycle. MIT Press, 2004. Berglöf E. Corporate Finance and Innovation. World Bank Publications, 2011. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal, 1997, Vol. 18, No. 7. Cooper, R. G. (2011) -Winning at New Products: Creating Value Through Innovation. Basic Books. Wheelwright, S. C., & Clark, K. B. (1992) - Revolutionizing Product Development: Quantum Leaps in Speed, Efficiency, and Quality. Free Press. Ries, E. (2011) -The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses. Crown Business. Kelley, T., & Littman, J. (2001) - The Art of Innovation: Lessons in Creativity from IDEO, America's Leading Design Firm. Currency/Doubleday. Christensen, C. M. (1997) - The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Harvard Business School Press. Takeuchi, H., & Nonaka, I. (1986) - The New New Product Development Game. Harvard Business Review. Osterwalder, A., & Pigneur, Y. (2010) - Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers. John Wiley & Sons. Govindarajan, V., & Trimble, C. (2010)- The Other Side of Innovation: Solving the Execution Challenge. Harvard Business Review Press. Leonard, D., & Swap, W. (1999) - When Sparks Fly: Igniting Creativity in Groups. Harvard Business School Press. Mintzberg, H. (1994) - The Rise and Fall of Strategic Planning. Free Press. Harold Kerzner (2024)- Innovation Project Management: Methods, Case Studies, and Tools for Managing Innovation Projects. Lerner, J., & Nanda, R. (2024). Venture Capital's Role in Financing Innovation: What We Know and How Much We Still Need to Learn. Journal of Economic Perspectives, 34(3), 237-261. Qu, Y., Huang, K., & Zhang, L. (2024). The role of venture capital in promoting innovation in key & core technology companies: A pre-registered study. Pacific-Basin Finance Journal, 83, Article 102937.

muammolarini o'rgangan. U mamlakatning iqtisodiy tizimini yangilash strategiyalarini tahlil qilgan. B.B. Berkinov innovatsiyalarni boshqarish masalalarini ishlab chiqqan. U korporativ tizimda innovatsion jarayonlarni samarali yuritish mexanizmlarini o'rgangan. D.V. Trostyanskiy tarmoqqa xos aspektlarni tadqiq etgan. U sanoat sohasida innovatsion yondashuvlarni keng ko'rib chiqqan. A.F. Rasulev investitsiya siyosatining turli jihatlarini o'rgangan. U innovatsion loyihalarni moliyalashning dolzarb masalalarini tahlil qilgan. Shu bilan bir qatorda, Sh.N. Zaynutdinov, A.Sh. Bekmurodov, D.G'. G'ozibekov, N.R. Qo'ziyeva, A.V. Vaxabov, I.L. Botirova, O.O. Olimjonov, D.S. Qosimova, N.G. Karimov, M.S. Abdurashidova., M.E. Balbaa, Sh. Nematov, Z. Mukhiddinov, I. Nasriddinov bu yo'nalishda izlanishlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning nazariy va amaliy jihatlarini, raqamli transformatsiya, modernizatsiya va korporativ boshqaruvdagi yangi yondashuvlarni o'z ichiga oladi.⁴

Ko'p sonli tadqiqotlarga qaramasdan, bir qator jihatlar yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib qolmoqda: Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsiyalarni moliyalashtirish xususiyatlari; Tarmoqlararo innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari; Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsiyalarni moliyalashtirish xususiyatlari; Yangi texnologiyalarning moliyalashtirish mexanizmlarini transformatsiyasiga ta'siri; Xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish. Muammoning dolzarbligi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari amaliyotini takomillashtirish zarurati va kutilayotgan ilmiy natijalarning muhim ilmiy-amaliy ahamiyati ushbu mavzuni tadqiqot obekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga asosan ITM-3 "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, bank va buxgalteriya hisobi tizimlarini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

⁴ G'ulomov S.S. "O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti". Toshkent: TDIU, 2019. Mahmudov N.M. "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish". Toshkent: JIDU, 2018. Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruvda innovatsion rivojlanish". Toshkent: Fan, 2020. Trostyanskiy D.V. "O'zbekiston sanoatini innovatsion rivojlantirish". Toshkent: IMEI, 2019. Rasulev A.F. "Innovatsiyalar va investitsiya siyosati". Toshkent: IPMI, 2021. Zaynutdinov Sh.N. (2017). Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning samarali yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot. Bekmurodov A.Sh. (2016). Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish: muammo va yechimlar. Toshkent: TDIU. G'ozibekov D.G'. (2013). Venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot. Qo'ziyeva N.R. (2017). O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot. Berkinov B.B. (2019). Innovatsion loyihalarni investitsiyalashning zamonaviy mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot. Vaxabov A.V. (2014). Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari. Toshkent: Moliya. Botirova I.L. (2015). Venchur kapital va uning innovatsion faoliyatni moliyalashtirishdagi roli. Toshkent: Moliya. Olimjonov O.O. (2018). Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda soliq imtiyozlarining roli. Toshkent: Moliya. Qosimova D.S. (2018). Innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish mexanizmlari. Toshkent: Fan va texnologiya. Karimov N.G. (2016). Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda moliya-kredit institutlarining roli. Toshkent: TDIU. Abdurashidova, Marina S., & Balbaa, Muhammad Eid (2023). The impact of innovation and digitalization on the quality of higher education: A study of selected universities in Uzbekistan. Journal of Intelligent Systems, 32(1), Article 2023-0070. Nematov, Sherzod, Mukhiddinov, Zayniddin, & Nasriddinov, Ilhom (2023). Digital transformation and innovation financing in Uzbekistan technical universities. Technical Science and Innovation Journal, TSTU Publication.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda biznes jarayonlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy biznes jarayonlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish;

biznes jarayonlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish (XXR) va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

biznes jarayonlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining joriy holatini tahlil qilish va joriy tendensiyalarni aniqlash;

innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini taklif etish;

innovatsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti bilan bog'liq omillarning ekonometrik tahlili va DEA(ma'lumotlar qamrovi metodologiyasi) tahlili asosida xulosalar chiqarish;

biznes jarayonlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi(AloqaVentures) olingan.

Tadqiqot predmeti biznes jarayonlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashqil etadi.

Tadqiqot usullari va metodologiyasi umumiy ilmiy usullarga asoslanadi: tavsif, taqqoslash, tizimlashtirish va tasniflash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya va boshqa usullar.

Tadqiqotning turli bosqichlarida quyidagilar qo'llanildi: ma'lumotlar massivini normallashtirish, parametrik va parametrik bo'lmagan testlar yordamida namunani baholash, ma'lumotlarni analitik guruhlash va klasterlash, grafik vizualizatsiya, regression modeldan foydalangan holda ekonometrik modellashtirish va DEA (ma'lumotlar qamrovi metodologiyasi) usuli.

Iqtisodiy va matematik modellashtirishni o'tkazish va ma'lumotlarning chetlashishi va tanlangan ekonometrik modellarga muvofiqligini tekshirish uchun Minitab, R Studio va Excel amaliy dasturlar paketidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda loyiha hayotiylik davriga mos ravishda resurslarni samarali taqsimlash, venchur kapital moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat qo'llab-quvvatlash choralarini qamrab olgan moslashuvchan klasterli model taklif etilgan;

startup akseleratorlari va inkubatorlarini ko'paytirish, grant dasturlarini yo'lga qo'yish va yosh tadbirkorlar uchun ta'lim-mutaxassislik dasturlarini tashkil etish asosida innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va venchur kapital uchun moliyaviy ekotizim yaratish taklif etilgan;

davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirishda samaradorligi ko'rsatkichlari orqali innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'zida mujassamlashtirgan institutional asosi ishlab chiqilgan.

ma'lumotlar qamrovi metodologiyasi asosida innovatsion loyihalarning samaradorligini baholash va moliyalashtirish jarayonida iqtisodiy ta'sirni aniqlash modeli taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

moliyalashtirish modeli loyihaning hayotiylik davri bosqichlarini, resurs taqsimotini va moliyalash manbalarini integratsiyalashni nazarda tutadi. U turli biznes subyektlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan, adaptiv va sohaga moslashuvchan klasterli moliyalashtirish modeli ishlab chiqildi;

venchur kapital, grantlar kabi turli moliyalashtirish instrumentlarini loyiha hayotiylik davriga mos ravishda uyg'unlashtirish orqali investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi uslubiy yondashuv taklif etildi;

innovatsion loyihalarda yuzaga keladigan moliyaviy va strategik xatarlarni barvaqt aniqlash, baholash va kamaytirishni nazarda tutuvchi moslashuvchan boshqaruv tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etildi;

innovatsion klaster subyektlari — davlat, xususiy sektor, akademik tashkilotlar va venchur fondlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan resurslar taqsimoti va sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmi ishlab chiqildi;

startup loyihalarni saralash va moliyalashtirish jarayonida ularning texnologik yangilik darajasi, bozor imkoniyatlari va moliyaviy barqarorligi kabi ko'rsatkichlarga asoslangan ilg'or baholash mezonlari tizimi ishlab chiqildi;

davlat grantlari va imtiyozlarning innovatsion loyihalardagi natijadorligini baholash uchun integral indikatorlar tizimi asoslandi, natijalarga bog'langan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi taklif etildi;

moliyaviy infratuzilmani baholash uchun banklar, fintex kompaniyalari, investitsiya fondlari va venchur strukturalarning innovatsion loyihalarga ta'sirini aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi;

innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi soliq va huquqiy imtiyozlar tizimi tahlil qilindi hamda intellektual mulk himoyasi, venchur kapitalni qo'llab-quvvatlashga doir me'yorlarni takomillashtirish taklifi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining O'zbekiston Respublikasining rasmiy ma'lumotlari, xalqaro moliya tashkilotlarining ma'lumotlari, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning ekspertlik baholari va ilmiy ishlari, shuningdek 2022-2024 yillarda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlaridagi venchur sohasidagi barcha bitimlarni o'z ichiga olgan crunchbase, startupblink.com, pitchbook kabi platformalarga asoslanganligida namoyon bo'ladi. Tadqiqotning metodologik asosi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligiga tayanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni kengaytirishda namoyon bo'ladi. Ushbu natijalar quyidagi aspektlarda ilmiy bilimni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi: innovatsiyalarni moliyalashtirishning nazariy asoslarini chuqurroq tushunishga yordam beradi, innovatsion loyihalarning samaradorligiga ta'sir etuvchi turli omillar o'rtasidagi yangi bog'liqliklarni aniqlaydi; mavjud bilimlarni tizimlashtirish amalga oshiriladi, bu butun holatni yaratishga va tadqiqotdagi bo'shliqlarni aniqlashga imkon beradi; olingan natijalar asosida keyingi tadqiqotlar uchun yangi gipotezalar shakllantirilishi mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda olingan natijalar, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan foydalanish, shuningdek innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar dasturini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Bu esa mamlakatda innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish uchun aniq ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biznes jarayonlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda loyihaning hayotiylik davriga mos ravishda resurslarni samarali taqsimlash, ventur kapital moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat qo'llab-quvvatlash choralari qamrab olgan moslashuvchan klasterli modelga doir taklifi ATB "Aloqabank"ning tijorat bankining innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (ATB "Aloqabank"ning 2024-yil 15-dekabrda 10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2030 yilgacha ventur moliyalashtirish hajmi 5 mlndan 100 mln dollargacha, innovatsion loyihalar soni 150 dan 800 gacha hamda davlat grantlari ulushi 5 foizdan 20 foizga, innovatsion klasterlar soni 2 dan 10 gacha ko'payishi kutilmoqda;

startup akseleratorlari va inkubatorlarini ko'paytirish, grant dasturlarini yo'lga qo'yish va yosh tadbirkorlar uchun ta'lim-mutaxassislik dasturlarini tashkil etish asosida innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va ventur kapital uchun moliyaviy ekotizim yaratishiga doir taklifi ATB "Aloqabank" tizimiga startup innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (ATB "Aloqabank"ning 2024-yil 15-dekabrda 10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "AloqaVentures" doirasida 2022–2024 yillarda 12 ta startup akseleratori, 8 ta grant dasturi tashkil etildi va 2500 nafar yosh tadbirkor ta'lim olgan;

davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirishda samaradorligi ko'rsatkichlari orqali innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'zida mujassamlashtirgan institutional asosiga doir taklifi ATB "Aloqabank" ATB "Aloqabank" tizimiga startup innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (ATB "Aloqabank"ning 2024-yil 15-

dekabrdagi 10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2021–2024 yillarda 8 ta davlat-xususiy sheriklik loyihasida 60 mlrd soʻmdan ortiq xususiy investitsiyalar jalb qilingan;

ma'lumotlar qamrovi metodologiyasi asosida innovatsion loyihalarning samaradorligini baholash va moliyalashtirish jarayonida iqtisodiy ta'sirni aniqlash modeliga doir taklifi ATB "Aloqabank" ATB "Aloqabank" tizimiga startap innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (ATB "Aloqabank"ning 2024-yil 15-dekabrdagi 10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2022–2024 yillarda 25 ta loyiha misolida sinovdan o'tkazilgan va ularning 72 foizida yuqori iqtisodiy samaradorlik aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishning nashr etilganligida namoyon bo'ladi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola va indekslangan xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan. Shuningdek, 3 ta respublika va 3 ta xorij konferensiyalarda tezislarida namoyon bo'lgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari va mantiqiy ketma-ketligi bilan shakllantirilgan bo'lib, kirish, uch bob, xulosa, 112 dan ortiq nomdan iborat adabiyotlar ro'yxati va ikkita ilovadan iborat. Dissertatsiya matni 137 sahifadan iborat bo'lib, 30 ta jadval, 27 ta rasm va 8 ta formulani o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, milliy iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **"Kompaniyalar innovatsiyalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlar"** deb nomlangan birinchi bobida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi fundamental nazariy masalalar keng qamrovli tadqiq etilgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan innovatsiya tushunchasining konseptual asoslari, moliyalashtirish mexanizmlarining klassifikatsiyasi va ta'sir etuvchi omillar tizimi chuqur tahlil qilingan. Bobda J. Shumpeter tomonidan kiritilgan innovatsiya tushunchasining evolyutsiyasi o'rganildi va zamonaviy sharoitlarda innovatsiya "yangi bilimlarni yaratish va qo'llashga asoslangan har qanday mahsulot yoki texnologik jarayonlarni yangilash natijasi" sifatida qayta talqin etildi. Tadqiqot davomida innovatsiyaning o'ziga xos mazmuni o'zgarish funksiyasini bajarishi va

innovatsion faoliyatning asosiy vazifasi transformatsiya jarayonini ta'minlash ekanligi aniqlandi.

Innovatsion jarayonlarning to'rt muhim xususiyati belgilandi: davomiylik (4-7 yil davomida uzluksiz faoliyat), yuqori xavf va noaniqlik darajasi (natijalarning past prognozlanilishi), strukturaviy o'zgarishlarni boshlash qobiliyati (korxona va sanoat tuzilmasiga sezilarli ta'sir) hamda "inson intensivligi" deb ataladigan intellektual to'yinganlikning oshishi (ijodiy qobiliyatlarning ustunligi). Ushbu xususiyatlar innovatsiyalarni boshqa biznes jarayonlaridan ajratib turuvchi fundamental belgilar sifatida ta'riflandi. Turli mezonlar bo'yicha innovatsiyalar tasnifi ishlab chiqildi, jumladan ahamiyati (takomillashib boradigan, psevdoinnovatsiyalar), yo'naltirilganligi (almashtiriladigan, ratsionallanadigan, kengaytiriladigan), amalga oshirilish joyi (kelib chiqish, amalga oshirish, iste'mol qilinish sohalari), o'zgarishlarning chuqurligi, ishlab chiqaruvchi va qo'llanish sohalari bo'yicha 10 ta asosiy mezon asosida klassifikatsiya amalga oshirildi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga mos ravishda innovatsiyalar mazmunining evolyutsiyasi tahlil qilindi: sanoatdan oldingi iqtisodiyot (yangi mahsulotlar), sanoat iqtisodiyoti (yangi mahsulotlar, bozorlar, texnologiyalar), axborot iqtisodiyoti (yangi ehtiyojlarni qondirish usullari), bilimga asoslangan iqtisodiyot (yangi qiymat va foyda yaratish) bosqichlarida innovatsiyalarning mazmuniy transformatsiyasi ko'rsatildi.

Moliyalashtirishning an'anaviy usullari keng qamrovda o'rganildi. Bank kreditlashi (But va Berger tadqiqotlari asosida) maqsadli investitsiya kreditlari, kredit liniyalari va loyiha moliyalashini o'z ichiga olishi, byudjet moliyalashtirishi (Djozef Stiglits yondashuvi) davlat grantlari va subsidiyalar tizimini qamrab olishi, kompaniyalarning o'z mablag'lari (Peter Druker konsepsiyasi) foydani qayta investitsiya qilish va amortizatsiya fondlaridan foydalanishni nazarda tutishi, aksiyadorlik moliyalashtirishi (Franko Modiliani va Merton Miller nazariyasi) fond bozori mexanizmlari orqali katta hajmdagi kapital jalb qilish imkoniyatini berishi hamda venchur kapital (Joshua Lerner va Pol Gompers tadqiqotlari) yuqori risk darajasidagi investitsiyalarni istiqbolli startaplarga kiritish mexanizmi ekanligi asoslandi.

Zamonaviy moliyalashtirish yondashuvlari ham tadqiq etildi, xususan kraudfunding (Erik Mollik va Bruton guruhining ishlari) loyiha yaratuvchilari va investorlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sir mexanizmi, peer-to-peer kreditlash klassik bank yuklamalarisiz moslashuvchan kreditlash tizimi, blokcheyn va DeFi (desentralizatsiyalangan moliya) texnologiyalari smart-kontraktlar va avtomatlashtirish orqali tranzaksion xarajatlarni kamaytirish imkoniyati hamda gibril moliyalashtirish modellari (Harvard Business Review va World Economic Forum tadqiqotlari) ko'p qatlamli, moslashuvchan investitsiya ekotizimlarini yaratish potentsialini namoyish etishi aniqlandi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar kompleks tizimi ishlab chiqildi. Tashqi omillar qatoriga fazoviy va joylashuv omillari (geografik pozitsiya, bozor yaqinligi), bozor sharoitlari (talab shakllari, raqobat darajasi, standartlar), davlat siyosati (tartibga solish, soliq tizimi,

infratuzilma), jamiyat va tabiiy muhit (innovatsiyalarni qabul qilish darajasi, ekologik ta'sir) hamda bilim oqimlari va tarmoqlari (ilmiy-tadqiqot imkoniyatlari, texnologiya transferi) kiritilgan.

Ichki omillar, iqtisodiy (inflyatsiya darajasi, soliq stavkalari, mehnat unumdorligi), moliyaviy (valyuta kurslari, kredit stavkalari, fond bozori holati), ma'muriy (normativ-huquqiy o'zgarishlar, tartibga solish yondashuvlari, korporativ boshqaruv), ilmiy-texnik (texnologiya rivojlanish darajasi, avtomatlashtirish, innovatsion infratuzilma), resurs-kadr (mutaxassislar tayyorlash, amaliyot imkoniyatlari, tayanch bo'limlar faoliyati) va ijtimoiy-psixologik (madaniy omillar, yangi texnologiyalarga sezgirlik, iste'molchi xatti-harakatlari) omillar kabi oltita asosiy guruhga tasniflangan.

Moliyalashtirish jarayonidagi axborot asimmetriyasi (S. Mayers va N. Maylaf tadqiqotlari) investor va tadbirkorlar o'rtasidagi bilim tafovuti, yuqori noaniqlik va risk (Robert Merton modeli) kelajakdagi natijalarni prognoz qilishning murakkabligi, aktivlarning o'ziga xosligi (Oliver Uiliamson nazariyasi) investitsiyalarning alternativ foydalanishda qiymatini yo'qotishi va davriylik xususiyatlari (Karlotta Peres konsepsiyasi) texnologik paradigmalarda o'rtasidagi o'tish jarayonlarining asosiy muammolari aniqlangan.


F. Yanssen tomonidan ishlab chiqilgan loyiha rivojlanish bosqichlari pre-seed (\$50.000 gacha - nisha qidirish, prototip yaratish), seed (\$50.000-\$500.000 - bozorni validatsiya qilish, MVP), startup (\$500.000-\$2M - ulushni egallash, mahsulot), growth (\$2M-\$10M - bozorni kengaytirish, masshtablash), expansion (\$10M-\$50M - yangi bozorlar, diversifikatsiya) va exit (\$50M dan yuqori - yetakchilik, optimizatsiya) bosqichlarining xususiyatlari va moliyaviy parametrlari batafsil tahlil qilingan.

Yuqori texnologiyali kompaniyalar uchun maxsus tasnif ishlab chiqildi, unda bozor omillari (fond bozori holati va tarmoq raqobatbardoshlik indeksining qiymati), investitsion jozibadorlik (kompaniya tomonidan allaqachon jalb qilingan fondlar miqdori, investitsiyalarda ishtirok etishning eksklyuzivligi, investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha oldingi operatsiyalar tajribasi, IT va sanoat sohalariga tegishliligi, crunchbase indeksi ko'rsatkichlari), moliyaviy omillar ("farishtalarning" moliyalashtirishi, korporativ venchur fondlari, tezlatgichlar, venchur fondlari, kraudfanding kabi turli moliyalashtirish shakllari) va kompaniya ichki omillari (joylashuv, oshkoralik darajasi, patentlar soni, ta'sischilar soni, bosh direktor tajribasi, kompaniyaning korporativ veb-saytlariga trafik to'g'risidagi ma'lumotlar) ajratildi.

Bobdagi nazariy xulosalar innovatsiyalarni moliyalashtirish sohasidagi zamonaviy yondashuvlarning kompleks manzarasini yaratdi va keyingi empirik tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos yaratdi. Ushbu nazariy baza O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar kontekstida amaliy yechimlar ishlab chiqish, davlat siyosatini shakllantirish va xususiy sektor strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy poydevor taqdim etdi. Tadqiqotning nazariy qismi innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish uchun zarur konseptual ramkani yaratdi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tahlili”** nomli ikkinchi bobida global va mahalliy darajada innovatsion loyihalarni moliyalashtirish holati keng qamrovli tahlil qilingan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan Global Innovation Index (GII) 2024 natijalariga asoslangan 133 ta mamlakatning innovatsiya faoliyati, global ilmiy va texnologik klasterlarning taqsimoti, ilm-fan va innovatsiyalarga investitsiyalar dinamikasi, shuningdek Xitoyning innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tajribasi va O‘zbekistondagi startup ekotizimining rivojlanish tendensiyalari batafsil o‘rganilgan.

Bobda Shveytsariyaning ketma-ket 14 yil davomida GII reytingida birinchi o‘rinni saqlab qolishi, Singapurning 78 ta ko‘rsatkichdan 14 tasida dunyoda yetakchilik qilgan holda to‘rtinchi o‘ringa ko‘tarilishi, Xitoyning o‘rta-yuqori daromadli iqtisodiyotlar orasida 11-o‘rin bilan liderlik qilishi va 26 ta klaster (26%) bilan global dominantlik o‘rnatishi, Hindistonning o‘rta-past daromadli mamlakatlar toifasida 39-o‘rin bilan yetakchiligi, shuningdek O‘zbekiston, Indoneziya va Pakistanning ketma-ket uchinchi yil davomida overperformer maqomini saqlab qolayotganligi tahlil qilingan.




1-rasm. GII Dinamikasi: Top 15 Innovatorlar, 2020–2024⁵

Alohida e‘tibor Xitoyning innovatsion moliyalashtirish tizimiga qaratilgan bo‘lib, mamlakatning Global Startup Ecosystem Indexda 12-o‘rin egallashi, 369 ta yakkashox kompaniyasi (dunyodagi barcha yakkashoxlarning 25%) bilan global startup arenasida yetakchi pozitsiyalari, 1 trillion yuan (\$138 milliard) miqdorida yangi texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash fondi va 344 milliard yuan (\$47.5 milliard) yarim o‘tkazgichlar fondi yaratishi, 5429 ta biznes-inkubator va 225 ming startup rezidentni qo‘llab-quvvatlash tizimi, “Fakel”, “Iskra”, “863”, “973” davlat

⁵ Global Innovation Index Database, WIPO, 2024.

ilmiy-texnik dasturlari orqali startaplarning to'liq hayot siklini qo'llab-quvvatlash mexanizmi chuqur tahlil qilingan.



2-rasm. Xitoyda yangi ventchur investitsiyalar soni 2015-2024⁶

Shu bilan birga, ikkinchi bobda ekonometrik modelning asosiy natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori texnologiyali kompaniyaning investitsion tushumlari moliyaviy davriga bog'liqligi Gompers va Lerner hamda Gompersning dastlabki ishlarida qayd etilganidek, ventchur kapitalining eng yuqori cho'qqilarida investorlarning tavakkalchilik ishtahasi oshishi va bu keyinchalik tijoratlashtiriladigan radikal innovatsiyalarning tabiatiga ta'sir qilishi aniqlangan. Tadqiqot uchun empirik ma'lumotlar startupblink.com platformasidan yuklab olingan bo'lib, 2024-yilda ushbu indeksning eng yaxshi 30 ta davlati va O'zbekistonda ventchur sanoatida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni o'z ichiga olgan.

Ma'lum bir kompaniyaning ma'lum bir mamlakatdagi muvaffaqiyatiga ta'sir qilgan omillarni tushunish maqsadida global startup ekotizim indeksidagi mamlakatlar ballini bog'liq o'zgaruvchi sifatida ko'rib chiqadigan regressiya modeli qo'llanilgan(3-jadval). Birinchi bosqichda regressiya tahlili uchun model spetsifikatsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu modelning asosiy maqsadi indeksdagi mamlakatlarni baholashga nima ko'proq ta'sir qilishini tushunishdan iborat edi.

Regressiya modelining yakuniy shakli quyidagicha aniqlangan:

$$RSc = 9,14 + 0,00107 fund + 3,14 pan + 0,0846 GERD$$

Korrelyatsiya matritsasi ma'lumotlarda multikollinearlik mavjudligini ko'rsatdi, mustaqil o'zgaruvchilar bir-biri bilan 80% darajasida korrelyatsiya qiladi va korrelyatsiyaning eng yuqori darajasi tranzaktsiyalar va ular bo'yicha investitsiyalar sonida 99% ni tashkil etdi. Korrelyatsiya matritsasiga asoslanib, bir-biri bilan kamroq bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash zaruriyati paydo bo'ldi va Best subset operatsiyasi amalga oshirildi.

⁶ <https://www.statista.com/outlook/fmo/capital-raising/traditional-capital-raising/venture-capital/worldwide>

Regressiya modelida ko‘rib chiqilgan o‘zgaruvchilarning tavsifi⁷

№	O‘zgaruvchi nomi	O‘zgaruvchi belgisi	O‘lchov birligi
1	Global startup ekotizimlari indeksidagi reyting balli	RSc(Y)	ball
2	Qimmatli qog‘ozlar bozori holati	Mkt(x1)	mantiqiy o‘zgaruvchi
3	Bitimlar miqdori	Deal (x2)	Dona/Birlik
4	Tranzaktsiyalar orqali investitsiyalar	Fund(x3)	Mln \$
5	Panteonlar soni	Pan(x4)	Dona/Birlik
6	Yakkashoxlar soni	Unic(x5)	Dona/Birlik
7	Innovatsiyalarga investitsiyalar	GERD(x6)	Mlrd \$

O‘zgaruvchilar tanlanganidan so‘ng, ularning barchasi ahamiyatlilik uchun sinovdan o‘tkazildi va t koeffitsientlarining qiymatlari namunaviy qiymatlardan oshib ketganligi sababli, barcha tanlangan o‘zgaruvchilar 1% darajasida muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu o‘zgaruvchilar mamlakat reytingini 95% ga tushuntiradi va ko‘rsatkichlar o‘tkazilgan testlarning barcha talablariga javob beradi. Shunday qilib, tanlangan mamlakatlarda innovatsion kompaniyalar tomonidan moliyalashtirishni jalb qilishda tadqiqotning bir qismi sifatida tanlangan 3 ta o‘zgaruvchini hisobga olish zarur: tugallangan bitimlarga olingan investitsiyalar (fund), panteonlar soni (pan) va innovatsiyalarga investitsiyalar (GERD).

O‘tkazilgan DEA tahlilining asosiy xulosalari shuni ko‘rsatdiki, regressiya tahlili faqat omillar ta‘sirini ko‘rsatadi va bugungi kunda samaradorlikni baholash juda muhim tadqiqot bo‘lganligi sababli, R Studio dasturidan foydalangan holda DEA usuli yordamida samaradorlikni baholash amalga oshirildi. DEA birinchi marta 1957 yilda Farrell tomonidan ishlab chiqilgan va keyin 1978 yilda Charnes-Cooper va Rhodes (CCR) tomonidan o‘zgartirilgan parametrik bo‘lmagan usul bo‘lib, bir nechta kirish va chiqishlar yordamida taqqoslanadigan qaror birliklarining ishlash darajasini o‘lchash uchun chiziqli dasturlashdan foydalanadi.

CCR modeli miqyosda belgilangan yoki doimiy daromadlarga asoslangan bo‘lib, barcha kirishlarning proporsional o‘sishi barcha mahsulotlarning teng proporsional o‘sishiga olib keladi. BCC modeli esa shkala bo‘yicha doimiy daromadlarni o‘zgaruvchan rentabellik bilan almashtirib, DMU VRS rejimida ishlashi holatini ko‘rsatadi. Tadqiqot uchun empirik ma‘lumotlar startupblink.com platformasidan yuklab olingan bo‘lib, 2024-yilda ushbu indeksning eng yaxshi 30 ta davlati va O‘zbekistondagi vechur sanoatida amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

